

TURIZM SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI

Sevara Joshkun

Sevara8088@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola raqamli transformatsiyaning rivojlanishi ko'pgina iqtisodiy faoliyat turlarining, shu jumladan turizmning ishlash modelini tubdan o'zgartish, raqamli transformatsiya milliy xavfsizlik, mahalliy kompaniyalarning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirish masalalarini hal etishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundan iboratki, raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning shart-sharoitlari va omillari va turizm faoliyatini axborot bilan ta'minlashning hozirgi ko'rib chiqilishi uning rivojlanishi uchun eng muhim turtki hisoblangan masalalar ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli transformatsiya, raqamli texnologiya.*

Аннотация: *Развитие цифровой экономики направлено на радикальное изменение показателей многих видов экономической деятельности, в том числе туризма, цифровую трансформацию в целях обеспечения национальной безопасности, повышение глобальной конкурентоспособности местных компаний. Значимость данного исследования заключается в том, что современный обзор условий и факторов формирования цифровой экономики и предоставление информации о туристической деятельности рассматриваются как важнейший импульс ее развития.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, цифровые технологии.*

Annotation: *The development of the digital economy is aimed at radically changing the performance of many types of economic activities, including tourism, digital transformation to address national security, increasing the global competitiveness of local companies. The significance of this study is that the current review of the conditions and factors for the formation of the digital economy and the provision of information on tourism activities are considered as the most important impetus for its development.*

Keywords: *digital transformation, digital technologies.*

KIRISH

Mamlakatimiz jahon hamjamiyatida salmoqli o'rin egallashi va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati va o'rni sezilarli albatta. Iqtisodiyotning barcha sohalari kabi turizm sanoatida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir qator qulayliklar yaratadi.

Asosiy qism Turizm sanoati raqamli asrga mos kela oladigan barcha aviatsiya, sayohat, oziq-ovqat, ichimliklar va turar joy sektorlarini o'z ichiga oladi. Turizm sohasidagi ba'zi texnologik o'zgarishlar va ishlanmalar jamiyat hamda biznes uchun foyda keltirayotgani hech birimizga sir emas. Raqamli dunyo rivojlanib borar ekan,

mijozlarning hatti-harakati ham o'zgarib boshlaydi. Ushbu o'zgarishlar istar istamas turizm sanoatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mijozlarning tajribasi, jumladan, mijozlarga xizmat ko'rsatish, tadbirlar, xona uchun qulayliklar va biznes taklif qiladigan boshqa xizmatlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi, chunki odamlar bir nechta tugmachalarni bosish orqali sayohat qilish joylarini osongina tanlashadi. So'nggi yillarda "Raqqamli transformatsiya" atamasi haqida ko'p bora eshitayotganimiz tabiiy hol albatta [1]. Hozirgi kunga kelib deyarli har bir inson o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bir qator qulaylik va afzalliklarga ega bo'lgan kamida bitta raqqamli qurilmaga egadir. Axborot texnologiyalari faqatgina turizm industriyasini rivojlantirishdagina emas, balki iqtisodiyotning barcha jabhalarida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shunday ekan, turistik tashkilotlarni boshqarishda va shu orqali mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga hissa qo'shishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni beqiyosdir.

Prezident Shavkat Mirziyayev raisligida joriy yilning 22 fevral kuni soha va hududlarda raqqamlashtirish jarayonini jadallashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Mavjud 715 ta davlat xizmatidan 370 tasi raqqamli platformaga o'tkazilgan bo'lib, ulardan o'tgan yili 12 million aholi foydalangan. Raqqamlashtirish natijasida 70 dan ortiq turdagi ma'lumot va hujjatlarni aholidan talab qilish bekor qilingan [2]. Yig'ilishda bir qator kamchiliklar tahlil qilinib, galdagi vazifalar belgilandi. Jumladan, Raqqamli texnologiyalar vazirligiga 26 ta axborot tizimini Yagona davlat xizmatlari portaliga birlashtirib, undagi xizmatlar sonini 570 taga yetkazish vazifasi qo'yildi. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlar eksportini kelgusida 1 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Buning uchun kamida 100 ming nafar malakali dasturchi, IT-arxitektor, operator va muhandislar kerak. Hududlarda yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini kengaytirish lozim. Xorijiy IT-kompaniyalar ko'payishi uchun yanada qulay muhit yaratish zarur. Aholi va tadbirkorlar uchun eng zarur bo'lgan yangi elektron xizmatlarni ishga tushirish joiz.

Metod va natijalar Umuman olganda, turizm sektori hajmi va ishchilar soni bo'yicha ko'rib chiqilsa, mamlakatlar va barcha iqtisodiy sohalar uchun muhim mavqega ega ekanligini aytish mumkin. Turizm sektori, yuqori miqdordagi bandlikni ta'minlaydigan tarmoqlardan biridir. Axborot texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar va ishlanmalar tufayli sektor ulkan texnologik sohaga aylandi hamda

yangilik va o'zgarishlarga duch keldi. Yuzaga kelgan bu innovatsiya va o'zgarishlar tufayli sektordagi manfaatdor tomonlar va turistlarning sayohat haqidagi tushunchalari o'zgarishi mumkin. Axborotga ega bo'lish juda qulay va tez bo'lgan mana shunday bir davrda odamlar hamma joyda muloqot qilishlari va axborot almashishga bo'lgan talablari turizm sektorida ham ma'lum darajada foyda keltirishi mumkin [3].

Turizm faoliyatida foydalaniladigan barcha turdagi tovar va xizmatlar sektor doirasidagi raqqobatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu kabi ilovalar natijasida sayohat qilish istagida bo'lgan sayyohlar soni sezilarli darajada ortayotganiga guvoh bo'lishimiz

mumkin. Turizmda axborot texnologiyalarini qo'llash sayyohlik tashkilotlari mahsuldorligini oshiribgina qolmay, ularning faoliyatini yanada samarali bo'lishiga hissa qo'shadi. Qisqacha qilib aytganda, axborot texnologiyalari ilovalari yordamida ayniqsa, turizm biznesi sezilarli yutuqlarga erishadi va mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turizmda robotlar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish texnologiyalari va avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanishning eng muhim yo'nalishlari restoranlar, mehmonxonalar, tematik parklar, ko'ngilochar bog'lar, tadbirlar, uchrashuvlar, aeroportlar, avtoulavlarni ijaraga berish kompaniyalari, turoperatorlar, sayyohlik agentliklari, turistik axborot markazlari, muzeylar va san'at saroylaridir. Hozirgi kunda yo'nalishlar o'zlarining sayyohlik rejalarini, asosan, raqamli muhitlarni hisobga olgan holda, internetda marketing strategiyalarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladigan rebrendni tanlaganliklariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, qo'shni Qozog'iston Respublikasi yangi o'yin orqali mamlakatning tabiiy va tarixiy go'zalliklarini rivojlantirish va butun dunyoga tanitishni maqsad qilgan. Mamlakatning tashrif buyurilishi mumkin bo'lgan 100 xil yo'nalishda bo'lib o'tadigan o'yinda, qo'lga kiritilgan virtual pul birinchi navbatta samalyot chiptasini sotib olish va o'yindagi darajalarni orttirishga sarflanishi mumkin. O'yinning ba'zi joylarini faollashtirish uchun Qozog'iston davlatiga tashrif buyurish sharti mavjuddir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda turizm sohasida ham ba'zi o'zgarishlar kuzatilmoqda. Turizm sohasida texnologiya va texnologiya bilan bog'liq ishlanmalarning tarqalishida va insonlarning bir birlari bilan tajriba almashishlarida raqamli muhitning ta'siri sezilarli albatta. Aytish mumkinki, raqamlashtirish boshqa sohalar singari turizm sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatti.

Raqamli transformatsiya davrida, agar turizm biznesi va destinatsiyalari boshqaruvning innovatsion yondashuviga ega bo'lmasa, kelajakda ular ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ma'lumki, an'anaviy marketing usullari avvalgi davrlardagi kabi bugungi kunda ham amalda emas. Hozir hammasi o'zgardi. Korxonalar va manzillar omon qolish uchun raqamli tizimga o'tishlari kerak. Sayyohlar ko'plab raqamli imkoniyatlarga ega. Smartfonlar, planshetlar, bulutli texnologiyalar va boshqalar. Bu bugungi kunda ajralmas narsaga aylandi. Ushbu raqamli imkoniyatlar va texnologik qurilmalar sayyohlarning sayohat oldidan va undan keyingi xatti-harakatlariga ham ta'sir qiladi. Sayyohlik korxonalarini va destinatsiyalari sayyohlarni jalb qilish va ularni sodiq mijozlarga aylantirish uchun nafaqat sayohat oldidan balki, sayohat lahzalarini ham o'z ichiga olishi kerak. Turistlarni ob'ektda yoki belgilangan joyda vaqt o'tkazishlari davomida ularni kuzatib borish, sayyohlarning tajribalarini tushunish va ularni raqamli muhitga ijobiy tarzda yetkazilishini ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida yaratilgan raqamli jamiyat odamlarning vaqt va makon haqidagi tasavvurini o'zgartiradi. Dastlab individual hayotda sodir bo'lgan bu o'zgarishlar, keyinchalik individuallikdan tashqariga chiqib, bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan barcha tarmoqlar va ijtimoiy

hayotga ta'sir qiladi. U ta'sir qilgan va o'zini ko'rsatgan sohalardan biri bu turizmdir [4].

Raqamli transformatsiya bugungi kungacha turli bosqichlar va har bir bosqichdagi texnologik o'zgarishlar orqali yetib keldi rivojlanishlar faqat sanoat inqilobi bilan chegaralanibgina qolmay, ular ijtimoiy hayotni turli darajalarda o'zgartiradi. Turizmdagi bu o'zgarishlarga bog'liq holda bugungi kunda virtual turizm tushunchasi birinchi o'ringa chiqdi va tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tajriba bilan sayyohlar virtual olamdagi hech qachon tashrif buyurish imkoniga ega bo'lmagan joylarga tashrif buyurishlari va sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. [5] Ijtimoiy tuzilma o'zgarimoqda va dunyoga yangi texnologiyalar bilan o'sib-ulg'aygan yangi avlodlar kelmoqda. Bu avlodlar raqamli hisoblanib, transformatsiyaga ancha oson moslashadi hamda virtual turizm faoliyatini tezroq tashkil qiladi va asrab qoladi.

Jahonning deyarli barcha mamlakatlari aholisi internet xizmatlaridan faol tarzda foydalanishadi. Ushbu global tarmoq orqali ular o'zlari uchun butunlay notanish, ya'ni umri davomida hech qachon ko'rmagan mamlakatlari tarixi va bugungi kundagi sharoitlari haqida bir necha daqiqada ko'plab ma'lumotlar to'plash imkoniyatiga egalar. Bu ham o'z navbatida turizm rivojlanishi va mamlakat iqtisodi uchun sezilarli hissa qo'sha oladi. Shunday ekan turizm sohasini takomillashtirish va rivojlantirishda raqamli transformatsiyalardan foydalanish bir qancha imkoniyatlar eshigini ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurmuxamad Duisenov, Jamiyat taraqqiyotida axboriy madaniyat, axborot resurslarining o'rni, 2021
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. Erkayeva Gulbaxor Panjiyevna, Turizm salohiyatini rivojlantirishda mobil innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llari, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 5/2022
4. Raximov Z.O. Raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning yangi turlarining rivojlanishi./ SamISIda o'tkazilgan «Turizmda innovatsion-investitsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari» mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi. (2020 yil, 3-iyun) – Samarqand: SamISI, 2020.
5. Oybek Ahmadjonov, Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari, 2021